

**"O'ZMILLIYBANK" AJNING 2023 YIL NATIJALARI BO'YICHA AMALGA  
OSHIRILGAN KORPORATIV BOSHQARISH TIZIMINI BAHOLASH  
HAQIDAGI XULOSA.**

“O‘zmilliybank” AJ (keyingi o‘rinlarda - Jamiyat)ning korporativ boshqaruv tizimini baholash to‘g’risidagi xulosa O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 08.09.2022 yildagi 03802223-sonli, investitisiya maslahatchisi faoliyatini amalga oshirish haqidagi xabarnomani qabul qilganligi to‘g’risidagi tasdiqnomaga asosan faoliyat yurituvchi "Winvestment Consult" MChJ (keyingi o‘rinlarda – mustaqil tashkilot) investitisiya maslahatchisi tomonidan tayyorlangan.

Baholashning asosiy maqsadi Jamiyatdagi korporativ boshqaruv tizimining holati to‘g’risida mustaqil ob’ektiv fikrni shakllantirishdir.

Jamiyatdagi korporativ boshqaruv tizimini baholash O‘zbekiston Respublikasi Davlat raqobat qo‘mitasi (*hozirgi kunda - O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi*) va Korporativ boshqaruv ilmiy-ta’lim markaz tomonidan 2016 yil 25 iyulda tasdiqlangan Savolnoma asosida amalga oshirildi.

Korporativ boshqaruv tizimini baholash Jamiyat tomonidan taqdim etilgan va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda oshkor qilingan ma'lumotlar asosida amalga oshirildi. Jamiyat taqdim etilgan hujjatlar, hisobotlar, ma'lumotlar va boshqa materiallarning to‘liqligi, mazmuni va ishonchliligi uchun javobgar hisoblanadi. Olingan hujjatlarning, ma'lumotlar va boshqa materiallarning asl nushaliligi va ishonchliligi tekshirilmadi hamda bahslashilmadi.

Mustaqil tashkiloti faqat Jamiyat tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga asoslanib, Jamiyatdagi korporativ boshqaruv tizimini baholash bo'yicha o'z fikrlarini bildirish uchun javobgardir.

Jamiyat tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar, shu jumladan ichki korporativ hujjatlar, hisobotlar va boshqa ma'lumotlar Jamiyatdagi korporativ boshqaruv holati to‘g’risida mustaqil fikrni shakllantirish va ifoda etish uchun etarli asos yaratdi.

Baholash natijalariga ko'ra, “O‘zmilliybank” AJning korporativ boshqaruv tizimining darajasi **yuqori** deb tan olingan va korporativ boshqaruv tizimi darajasini baholashning yakuniy natigasi **940 ball** yoki mumkin bo'lgan maksimal natijaning **78%** tashkil etadi.

Rahbar

X.Toxtayeva



*Xulosa chiqarilgan sana:* 2024/04/26